

PESTISIDLAR QÒLLANISHINI SALBIY OQIBATLARI

Fattoyeva Gavhar Hikmatillo qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Instituti Tarix fakulteti talabasi

Anotatsiya: Bugungi kunga kelib pestisidlardan kòp va tartibsiz ravishda foydalanish oqibatida ekologiyaga jiddiy zarar yetmoqda. Buning oqibatida esa butun tirik olam aziyat chekmoqda. Tògri pestisidlarining zararkunandalarni qirishda foydasi yuqori ammo , foydali tirik organizmlarga ham zarar keltirayotganini alohida ta'kidlash kerak. Pestisidlardan kòp va tartibsiz foydalanish bugungi kunda global muommolardan biriga aylanib bormoqda. Bu kamayish òrniga yildan -yilga ortib bormoqda. Afsuski, bunga biz insonlarni òzi sababchi bòlib qolayotganligi achinarli albatda. Biz pestisidlardan foydalanayotganda uning foydali tarafini kòryapmizu, afsuski salbiy taraflariga e'tibor bermayapmiz. Vaholanki, bu e'tiborsizlik òzini natijasini kòrsatmoqda desak, yangilishmagan bòlamiz.

Annotation: Today the environment is being severely damaged as a result of excessive and irregular use of pesticides. As a result, the whole living world suffers. It should be noted that the right pesticides are highly effective in killing pests, but also harm beneficial organisms. Excessive and erratic use of pesticides is becoming one of the global problems today. Instead of decreasing, it is increasing from year to year. It is unfortunate if course that we human beings are the cause of this. We see the benefits when we use pesticides but unfortunately we don't pay. However, it is safe to say that this negligence is having its consequences.

Kalit sòzlar: Pestisid, radioaktiv moddalar, izotop, stropsiy, preparat, rezistentlik, nekroz, toksikoz, intektisid, gerbisid, fungisid.

Pestitsidlar (lot. pestis- maraz, caedo- òldiraman) zaharli kimyoviy moddalar-òsimlik zararkunandalari va kasalliklari begona òtlar uy hayvonlarini xavfli kasalliklarini qòzgatuvchilarga qarshi kurashda foydalaniluvchi kimyoviy moddalar hisoblanadi. Pestisidlar òsimliklar zararkunandalarga qarshi kurashish maqsadlarida inson tomonidan ixtiro qilingan sun'iy birikmalardir. Ular insektisid , fugisid be gerbisid deb ataladigan guruhlarga bòlinadi. Intektisidlar zararli hasharotlar bilan , fugisidlar esa òsimliklarning bacterial kasalliklariga, gerbisidlar esa madaniy òsimliklar orasida uchraydigan yovvoyi begona òtlarga qarshi kuradi uchun qòllaniladi. Qishloq xòjaligida tabiatni ifloslantiradigan kimyoviy usullardan biologik kurash usullariga òtish asosiy muommolardan biri bòlib qolmoqda. Bu zaharli moddalarni ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarini qòshimcha ravishda ifloslantiruvchi moddalarni ham ajratadi. Ular tabiatda oqava suvlar oqimi bilan tarqaladi. Shuningdek suv muhitida aksariyat hollarda pestisidlardan tashqari, fungisid va gerbisidlarning turli -tuman xillari ham kòp uchraydi. Qishloq xòjaligida pestisid moddalarni qollash tufayli yer osti suvlari tarkibida ammoniy nitratlar , fosfor, kaliy, xlor va boshqa birikmalar miqdori ortadi, natijada yerosti suvlari iste'mol be xo'jaklikning boshqa sohalarida qòllash uchun yaroqli holatga òtadi. Uzoq vaqt davomida surunkasiga pestisidlarni qishloq xòjaligida qòllanishi natijasida ularning zararkunandalarga qarshi tasiri pasaya bordi. Shunday ekan zararkunandalarga samarali ravishda qarshi kurashish uchun qòllaniladigan kimyoviy preparatlarni borgan dark kuchlirogini qòlashga tògri keladi. Shu bilan birga pestisidlarning foydali tirik mavjudotlarga zararli tasiri butun dunyoda global masshtabda sodir bòlayotganligi kuzatilmoqda. Kimyoviy preparatlarni xalq xòjaligida qolash hajman va miqdoran yildan -yilga kòpaymoqda. Vaholanki, qishloq xòjaligi, chorvachilik va meditsinada qòllaniladigan kimyoviy preparatlarning barcha foydali tirik mavjudotlar shu jumladan , insin

uchun zarari nihoyatda oshgan. By kimyoviy elementlar yoki ularning birikmalari insonning biologik xususiyati, yosh holati, ekologik sharoit tasir vaqtiga bogliq holda inson organizmiga salbiy ta'sir kòrsatadi. Masalan, teretologik òzgarishlar kòpayish jarayonida mutatsiya hodisasining sodir bòlish, biologik mahsuldorlikni òzgarishi, nekroz, toksikoz (zaharlanish) kabilarning sodir bòlishiga olib keladi.

Tuproq -quruqlikning yuqori qismi bòlib òsimliklar ,hayvonlar, mikroorganizmlar va iqlim tasirida "ona" toğ jinlaridan hosil bòlgan. U biosferaning boshqa qismlari bilan uzviy boglangan muhim va murakkab boglangan tarkibiy qismi. Tuproq goyo tirik organizm. Uning ichida turli murakkab jarayonlar kechadi. Tuproqni yaxshi holatda tutib turish uchun uning barcha tashkil etuvchilarining almashinish jarayonlar tabiatni bilish zarur. Tuproqning sirtqi qavatlarida turli xil organizmlarning kòplab qoldiqlari mavjud. Ularning chirishioqibatida gumus hosil bòladi. Gumusning miqdori esa tuproqning hosildorligini belgilab beradi. Tuproqdagi organizmlar barcha organik qoldiqlarni qayta ishlaydi. Shunday qilib tabiiy sharoitlarda tuproqda modda almashinuvi doimiy sodir bòlib turadi. Zaharli moddalar oqibatida tabiiy muhit va xususan tuproq zaxiralari ifloslanishi nafaqat inson boringki barcha tirik organizmlar ,òsimliklar, hayvonot olami, mikroorganizmlarga salbiy ta'sir kòrsatishi va ularning individual tarraqiyotining malum fazasida tegishli tomonga òzgarishi kuzatiladi. Tuproq ifloslanishining barcha kòrinishi tirik organizmlarning turli xil guruxlarida, xususan ularning ota- onasiga bir xilda tasir qilmaydi. Shunga kòra naslga tasir qilgan va naslga tasir qilmagan holda alohida organda kuzatiladigan guruhlariga bòlinadi. Tuproqqa tushgan kimyoviy moddalar ,tuproq bilan aloqador bolgan suv ,havo va òsimliklar orqali inson organizmiga òtadi. Bu hodisa biologik zanjir: tuproq-òsimlik-odam, tuproq-òsimlik-hayvon, odam va hokazo orqali sodir bòladi. Shuning uchun ham tuproqda sepiladigan kimyoviy moddalarni qòllash meyorlari by zaharli yoki zararli moddaning nafaqat tuproq uchun zarari, balki inson uchun ham keltiradigan zarari hisobga olinishi kerak. Kishi faoliyati natijasida tuproq zaxiralari eng xavfli tasir qiladiganlaridan yana biri radioaktiv moddalar hisoblanadi. Masalan stropsiyning tuproqda saqlanish kuchliligi uning almashinuvda ishtiroki bilan bogliq. Tuproq tarkibida almashinuv uchun sarflanadigan kalsiy qay darajada ko'p bòlsa, stropsiyning tuproqda saqlanishi shu darajada kop davom etadi. Inson faoliyati tasirida òsimlik va hayvon azolarida radioaktiv moddalarning miqdori yildan yilga ortib bormoqda. Bundan aziyat chekadigan ham albatda insonni òzi bòladi. Hozirga qadar radioaktiv moddalarni neytrallashtirish choralari tòliq ishlab chiqilganча yòq.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. "Umumiy ekologiya" A. Ergashev. Toshkent "Òzbekiston "2003.
2. "Umumiy ekologiya " S. Mustafoyev, S. Òroqov, P. Suvonov. Toshkent 2006.
3. "Ekologiya" I. Xoliboyev, A. Ikromov. Toshkent "Mehnat"2001.
4. <https://uz.m.wikipedia>
5. <https://qomus.info>